


Korxonalar va tashkilotlar (2018 yil yanvar-noyabr)

2018 yilning yanvar-noyabr oyida viloyatimizda 2998 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 583 ta (24,1 %) ga ko'pdir.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 1200 ta (6,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 21152 tani tashkil etgan.


Korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Viloyatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'zida tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, hayotga tadbiriq qilinmoqda.

Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 dekabr holatiga)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,5 % savdoda, 7,4 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,2 % qurilishda, 20,2 % sanoatda, 4,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa, va 30,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni, o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi

	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	2018-yil 1 dekabr holatiga	
			Ro'yxatdan o'tgan, %	Faoliyat ko'rsatayotgan, %
Namangan viloyati	22267	21152	100,0	100,0
Namangan sh	8605	8090	38,7	38,3
tumanlar:				
Mingbuloq	871	864	3,9	4,1
Kosonsoy	1294	1239	5,8	5,9
Namangan	1561	1489	7,0	7,0
Norin	903	871	4,1	4,1
Pop	1206	1123	5,4	5,3
To'raq'org'on	1405	1315	6,3	6,2
Uychi	1322	1308	5,9	6,2
Uchq'org'on	1099	1065	4,9	5,0
Chortoq	1135	1084	5,1	5,1
Chust	1785	1690	8,0	8,0
Yangiq'org'on	1081	1014	4,9	4,8

2018 yil yanvar-dekabr holatiga 2998 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan 24,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (1061 ta), Chust (219 ta), Uychi (206 ta), To'raq'org'on (195 ta), Namangan (184 ta), Norin (175 ta), Mingbuloq (169 ta) Uchq'org'on (172 tadan), Pop (166 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) birlikda




Agar Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (829 ta), boshqa turlarda (681 ta), savdoda (644 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (282 ta) va qurilishda (198 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (42 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (83 ta), yashash va ovqatlanishda (113 ta) hamda tashish va saqlashda (126 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

	2017 yil 1 dekabr xolatiga			2018 yil 1 dekabr xolatiga		
	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %	Jami	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy soniga nisbatan, %
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	290	148,0	12,0	282	97,2	9,4
Sanoat	756	145,7	31,3	829	109,7	27,6
Qurilish	129	114,2	5,3	198	153,5	6,6
Savdo	586	112,3	24,3	644	109,9	21,5
Tashish va saqlash	110	102,8	4,6	126	114,5	4,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	117	123,2	4,8	113	96,6	3,8
Axborot va aloqa	28	80,0	1,2	42	150,0	1,4
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	47	127,0	1,9	83	176,6	2,8
Boshqa turlari	352	135,4	14,6	681	193,5	22,7


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)



Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 dekabr holatiga 16953 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5651 ta, oilaviy korxonalar – 315 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 10453 ta, va boshqalar 534 tani tashkil etadi.


Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 131 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 28,4 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 96 tasi qo'shma korxonalar, 35 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar davomida o'sishi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 139 tani tashkil etib ularning asosiy qismi Namangan shahar 55 ta (39,6%), Kosonsoy tumanida 12 ta (8,6%), Uychi tumanida 11 ta (7,9%), Chortoq, To'raqo'rg'on tumanlarida 10 tadan (7,2%), Namangan, Norin tumanlarida 6 tadan (4,3%), Chust tumanida 8 ta (5,8%), Uchqo'rg'on, Yangiqo'rg'on tumanlarida 5 tadan (3,6%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Mingbuloq tumani hissasiga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 dekabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 88 ta (67,2%), savdoda 16 ta (11,4%), boshqa turlarida esa 10 ta (6,9%) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqada 1 ta (0,8%), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (3,8%), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 3 ta (2,3%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 9 ta (6,8%) tashkil qilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa tashish va saqlash hamda axborot va aloqa faoliyat turiga to'gri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (birlikda)



2018 yilning yanvar-noyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 36 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 33 ta, Xitoy Xalq Respublikasi- 27 ta, Afg'oniston – 4 ta, va Koreya Respublikasi – 16 ta, 2018 yil davomida Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-noyabr holatiga) birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 20 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8 ta, savdoda 5 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi
korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
soni, o'sish dinamikasi**

	2017 yil yanvar-noyabr			2018 yil yanvar-noyabr		
	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	O'tgan yilga nisbatan %	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	12	4,0 m	75,0	20	166,7	55,5
Savdo	3	3,0 m	18,7	5	166,7	13,9
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	1	-	6,3	8	8,0 m	22,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	-	-	-	1	-	2,8
Axborot va aloqa	-	-	-	1	-	2,8
Tashish va saqlash	-	-	-	1	-	2,8

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 dekabr holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 16854 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 dekabr holatiga qaraganda 5,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 6874 tasi (40,8 %) Namangan shahriga, 1356 tasi (8,0 %) Chust tumaniga, 1252 tasi (7,4 %) Namangan tumaniga, 1032 tasi (6,1 %) Uychi tumaniga hamda 1023 tasi (6,1 %) To'raqo'rg'on tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16854 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 4936 tasi (29,3%)—savdoda, 4236 tasi (25,1 %) - sanoatda, 1511 tasi (9,0 %) - qurilishda, 1537 tasi (9,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 841 tasi (5,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 765 tasi (4,5 %) - tashish va saqlashda, 307 tasi (1,8 %) - axborot va aloqa sohasida, 411 tasi (2,5 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2310 tasi (13,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga

to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-noyabr holatiga 2524 taga kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 13,4 foizga ko'p. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahrida (931 ta), Chust (182 ta), Uychi va To'raqo'rg'on tumanlarida (175 tadan), Namangan (151 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangiq'org'on (111 ta), Mingbuloq (119), Pop tumanida (130 tadan) Chortoq (133 ta) tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (829 ta), savdoda (644 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (279 ta) va qurilishda (198 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa yashash ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (113 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (82 ta) hamda axborot va aloqada (42 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni



Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 dekabr holatiga 321 tani tashkil etib, ulardan 315 tasi yoki 98,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 28,4 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.


Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 50,2 % yoki 158 tasi sanoat, 15,9 % yoki 50 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 11,7 % yoki 37 tasi savdo, 9,8 % yoki 31 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 0,6 % yoki 2 tasi qurilish, 1,0 % yoki 3 tasi axborot va aloqa, 1,9 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 8,9 % yoki 28 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri

kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:71-230-84-95